

O'ZBEK MUMTOZ QO'SHIQCHILIGIDA MAQOM XONANDALIK IJROCHILIGINI SHAKILLANTIRISH USULLARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19417753>

Tursunov Xurshid Abduraimovich

*Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti Musiqa ta'limi kafedrası
o'qituvchisi*

Annotatsiya

Maqolada yuqorida qo'shiqni kuylashda doira usullari va uning o'lchovlariga tayanib qo'shiq o'rganishning muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritgan bo'lsak, davomida qo'shiqni badiiy jihatdan yuqori saviyada kuylashga doir muhim jihatlar haqida fikr yuritmoqchimiz. Shunday ekan, qo'shiqni nimalar hisobiga tarkib topganligi haqidagi tushunchaga ega bo'lishimiz zarurdir deb yoritib berilgan.

Kalit so'zlar

Mumtoz qo'shiqchilik, o'ta kuchli tovush, qo'shiqning ijro saviyasi, she'r o'lchovlari, maqom kechalari, vokal-texnik ijro, qo'shiqning ijro saviyasi.

Аннотация

В предыдущей статье мы обсуждали важность обучения пению по круговым методам и их измерениям, а в следующей мы хотели бы обсудить важные аспекты исполнения песни на высоком художественном уровне. Поэтому подчёркивается необходимость понимания того, из чего состоит песня.

Ключевые слова

Классическое пение, чрезвычайно сильный голос, уровень исполнения песни, поэтические размеры, вечера макомов, вокально-техническое исполнение, уровень исполнения песни.

Abstract

In the previous article, we discussed the importance of learning to sing using circle methods and their measurements, and in the next one, we'd like to discuss the key aspects of performing a song at a high artistic level. Therefore, we emphasize the need to understand the components of a song.

Key words

Classical singing, extremely strong voice, level of song performance, poetic meters, maqam evenings, vocal and technical performance, level of song performance.

Kirish (Adabiyotlar sharhi). O'zbek mumtoz qo'shiqchiligi ming yillardan buyon insonlar qalbiga katta hayot falsafasini singdirib kelmoqda. Mumtoz qo'shiqlar orqali yosh avlod vatan mustaqilligi, xalqimiz tarixiga oid qadriyatlardan boxabar bo'lib kelmoqda. Mumtoz qo'shiqchilik haqida so'z yuritish bir qator bahslarga sabab bo'lishi tabiiy. Chunki mumtoz qo'shiq kuylashning muayyan qonun-qoidalari Shu kunga qadar yetarlicha o'z yechimini topmagan, desak xato bo'lmaydi. Lekin ko'p yillardan buyon kuylab kelgan ustoz hofiz va hofizalarimizning ijodiga nazar taShlasak, necha soatlab murakkab va keng diapazonli ashulalarni toliqmasdan kuylashi, ovoz barqarorligini saqlab qola olishi ularning o'z kuylash uslubiga ega bo'lganligi hamda o'z kuylash maktablarini yaratganligidan dalolat beradi.

Demak, mumtoz ashulalarni kuylashning o'ziga xos yo'llari, ijro uslublari mavjud ekanligiga shubha yo'q deyishga to'la asosimiz bor. Biz bu darslikda ko'p yillar davomida kuylab kelayotgan taniqli ustoz hofizlarimizning ijro yo'llariga tayangan holda qo'shiq kuylash usullari haqidagi mulohazalarimizni bayon etishni lozim topdik. Har bir tinglangan qo'shiqning ijro saviyasi xonandaning vokal-texnik ijro mahoratiga qarab baholanadi. Shuning uchun ham qo'shiq kuylashda vokal-texnik jarayonni to'g'ri tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Dastlabki kuzatiShlarimizdan ma'lum bo'ldiki, qo'shiq o'rganishga jazm etayotgan xonandalar ilgari har xil uslublarda kuylashga odatlanib qolganlar. Xonanda turib kuylaganda ham bosh va qomatni to'g'ri saqlay olishi, ovoz apparatlarini erkin, yumshoq holatda ishlatish qoidalarga amal qilishi, yelkalarni tushirib yubormaslik, yuz va chehrani chiroyli saqlash, qo'shiq kuylaganda qalqib ketmaslik uchun oyoqqa to'g'ri tayanib turish (chap oyoqni bir oz oldiga qo'yib turish), qo'shiq xususiyatiga xos ba'zi qo'l harakatlarini bilish (qo'lni ko'krakka qo'yishi yoki juftlab ushlab turishi) ko'krak qafasini bir oz oldinga chiqarib, yelkalarni sezilarli orqaga tortib kuylashga o'rgatishi gavdaning to'g'ri holatini saqlashga imkon beradi.

Cholg'u sozida chalib kuylash. Xonandani milliy cholg'ulardan birida o'ziga jo'r bo'lib kuylashga o'rgatiSh ham tavsiya etiladi. Bunday hollarda cholg'u xonandaning qo'shiq kuylashiga xalal berna'yidigan holatlarini tanlab olishi zarur. Ayniqsa, nafas olishga va kuylashga putur yetkazmaslik maqsadga muvofiq. Cholg'u chalgan paytlarda bosh, qomat bukilib, egilib qolmasligiga katta ahamiyat

berish zarur. Cholg'u chalganda ovozga dam berishni o'rganish keyingi frazalarning samarali bo'lishiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Xalqimiz ardog'idagi san'atkorlar ko'plab etishib chiqqan. 60-70 yillari ommalashib ketgan «Maqom kechalari» ansamblning etuk xonanda va sozandalaridan O'zbekiston Respublikasi san'at arboblari Fahridin Sodiqov, Temur Mahmudov, O'zbekiston xalq artistlari Turg'un Alimatov, Abdulaxad AbduraShidov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Abdurahmon Holtojiev, Abdunabi Ziyoev, Tohirjon Turg'unov kabi sozandalar; O'zbekiston xalq hofizlari Isroil va Ismoil Vahobovlar, Maxmudjon Yo'ldoshev, Beknazar Do'stmurodov, Soyibjon Niyozov, Abdunabi Ibragimov, O'zbekiston xalq artisti Matluba Dadaboeva, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Komila Bo'rieva SHarofat Tojiboeva xonandalardan Ozoda YOrova, Ozodbek Tillanazarov, To'rabek Muxtorov, Murodjon Norqo'ziev, Qo'chqor Saidov, Ikromjon Matanovlarning Bobur Kenjaev kabi xonandalar nomlarini alohida tilga olish joizdir.

Natijalar va munozara. Hech qaysi san'at turi poeziya va musiqachalik bir-biriga chambarchas bog'lanmagan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki insonni nafosat olamiga yetaklovchi turli his-hayajonlarni yuzaga keltirib, g'am-anduhlardan forig' etishdek, bu benazir san'at turi tunu kun biz bilan hamroh va yonma-yondir. Shunday ekan, poeziyada bo'lgani kabi musiqada ham chuqur mazmun, falsafiylik, nafislik mavjudki, bu bir butun tarzda uyg'unlashgan va mujassamlashgan.

E'tibor bergan bo'lsangiz, gap she'r o'qiSh haqida Shuningdek She'rga monand kuy jo'rligida o'qish haqida boryapti. Agar she'r (kuy jo'rligida) o'qilganda ta'sirchanligi Shunchalik ortgan bo'lsa, qo'shiq kuylangandagi holat haqidagi tasavvurga to'xtalmasa ham bo'ladi.

Bunday musiqaning ta'siri she'rdan ustun ekan, degan fikrga borishimiz noo'rindir. Chunki musiqa undan oldin yaratilgan obrazni boyitib, ta'sirchanligini orttirib beradi. Shuning uchun bu jarayon har ikki muhim jihatlar hosilasi ekanligini biliShimiz kerak. Mazmundor she'rlar asosida ko'plab musiqalar yaratilgan bo'lsa, kuchli musiqiy asar ta'sirida turli mazmunli bitiklar yuzaga keladi. Shuning uchun ham xonanda o'z navbatida she'riyatdan yaxshi xabardor kishilar bo'lishini taqozo etadi.

She'r o'lchovi, vazn asoslari va qoidalarini egallashda musiqaning ritmik asosi hal etuvchi ahamiyatga ega bo'lganligi kabi, qo'shiqlar yaratilishida ham matndagi o'lchov, ritmik qurilmalardan tayanganligi sir emas. Shunday ekan, qo'shiq kuylashda ashulaning ritmik asoslarini, usullarini o'zlashtirish bilan bir qatorda, She'riyat bilan o'zaro munosabatini ham uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'tmishda hofizlar ashulalarga mos She'r o'lchovlarini ma'lum bir usul

vositasi bilan aniqlaganlar. Shunga ko'ra She'r vazni nog'ora, doira usullarining ifodasi hisoblanuvchi ritm qismlari (tan-tanan-tananan yoki bak-baka-bum) orqali topilgan. Shu yo'l bilan She'r o'lchoviga mos vazni aniqlab olganlar. Masalan: tanan tan-tan, tanan-nan-tan, tanan-tan-tan, tanan-tan-tan usuliga. Mafo-i-lun mafo-i-lun, mafo-i-lun mafo-i-lun, mafo-i-lun mafo-i-lun vaznida bitilgan She'rlarga murojaat etilgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, She'r va musiqa birligi chambarchas bog'liqligini inkor etib bo'lmasligi yaqqol ayon bo'lib turibdi. Shunday ekan, xonanda She'riyat bilan oddiygina muomalada bo'lmasdan, balki buning o'ziga xos jihatlarini o'rganishga jiddiy bel bog'lashi zarur. Hozirgi kunda yaratilgan She'r mazmunini, uning ritmik tuzilishlarini aniqlash va unga yondashish oson kechishi tabiiy. Lekin klassik Shoirlarimizning bitgan ko'plab g'azal, ruboiy, masnaviy, muxammas, musaddas, murabba', musamman, mustazod, muammo va boshqa janrlarda bitilgan asarlariga murojaat etishni ilk Mashg'ulotlardan boshlab tushuntirish, buning ahamiyati katta ekanligini uqtirib borish zarur. Mashg'ulotlar jarayonida o'rganilayotgan qo'shiqlar tarkibida uchraydigan noma'lum so'zlarga alohida lug'at daftarchalari tutish va bu so'zlar mazmunini tez-tez eslab turish tavsiya etiladi. Bu lug'atlar yillar mobaynida boyitib borilishi haqida eslatib turiladi.

Xulosa va tavsiyalar. Mumtoz qo'shiq kuylashda yuqorida izoh berib o'tilgan nola va qochirimlarni qay ko'rinishda kuylash malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ovozda turli qochirimlarni kuylash uchun ovoz kuchini e'tiborga olish kerak. Tovushni turli tomonga tebratish, kuchli-kuchsiz, o'rta maromda tovush hosil qilishning ahamiyatini tushunib yetish milliy bezak berishning eng muhim jihatini ta'skil etadi. Chunki tovush ma'lum oraliqdagi tovush yo'nalishida tebranib turadi. O'ta kuchli tovush bilan kuylash orqali bunday jozibali ovoz paydo bo'lmasligini talabaga uqtirish, shuningdek, o'z me'yorida erkin va yumshoq tebranishdagi ovoz hosil qilish yoqimli va turli qochirimlarni qo'llash uchun qulay ekanligini e'tiborga olish muhim hisoblanadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Xoshimov A.S. Uyg'ur kasbiy musiqasi an'analari. – Toshkent, 2003.
- 2.Yu.Rajabiy. O'zbek xalq musiqasi. I-V tomlar. – T., 1957-1959.
- 3.M.Yusupov. O'zbek xalq musiqasi (Xorazm ashulalari). – T., 1962.
- 4.Ye.Romanovskaya. O'zbek xalq qo'shiqlari. I,II-tomlar. – M., 1939.
- 5.I Rajabov. Maqomlar. – T., 2006.